

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10801695>

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Ro‘ziyeva Aygul Ergashevna

Termiz tuman 20-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi Ona tili va adabiyot fani
o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ona tilimiz va adabiyotimizga qaratilayotgan e’tibor hamda umumta’lim maktablarida ona tili va adabiyot fanlarida foydalaish mumkin bo’lgan interfaol metodlar haqida artoflicha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: metod, til, adabiyot, interfaol metodlar, ta’lim, tarbiya, dars, islohot.

ABSTRACT

In this article, the attention paid to our native language and literature and the interactive methods that can be used in the subjects of native language and literature in secondary schools are discussed.

Key words: method, language, literature, interactive methods, education, training, lesson, reform.

KIRISH.

Yurtimizda so‘ngi yillarda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ona tilimiz va adabiyotimizga qaratilayotgan e’tibor ham kundan-kunga oshib bormoqda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Bugungi kunda biz yangi O‘zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech

shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz”. Darhaqiqat, «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»da ham «uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ...yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ...umumiyl o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish» yo‘nalishi¹ da ham ko‘plab vazifalar belgilangan. Natijada ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiyalarni takomillashtirish va malaka oshirish jarayonida qo‘llash imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Jumladan, dars jarayonlarida pedagoglardan zamonaviy, interfaol ta’lim metodlaridan keng foydalanish talab etilmoqda. Shu o‘rinda maktab o‘qituvchilari uchun ona tili va adabiyot darslarida foydalaniyatgan interfaol metodlardan na’munalar keltirmoqchimiz.

ASOSIY QISM.

Har bir interfaol metod ta’lim jarayonida erishilishi kutilayotgan natijalarga o‘zining yuqori ta’sirini ko‘rsatadi desak adashmaymiz. Quyida keltiriladigan interfaol metodlardan ona tili va adabiyot darslarida foydalanish natijasida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, o‘zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o‘zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishishimiz mumkin . Jumladan, «Baliq ovi», «Kim hakam», «Taqdimot-tadqiqot», «Piramida», «Matn tuzib ko‘r, aqling bo‘lar zo‘r», «Raketa», «To‘g‘ri noto‘g‘ri», «Xatosini top», «Xotira mashiqi», «Bo‘g‘in», «Mo‘jizalar maydonchasi», «Maqol», «So‘zdan so‘z yasash» va b. o‘yinlar shular jumlasidandir.

“Kim hakam” o‘yini.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida “Kim hakam” o‘yini olib boriladi. Bunda o‘quvchilardan diqqat, tezkorlik, hozirjavoblik talab etiladi, O‘quvchi fikrini jamlashga harakat qiladi. O‘qituvchi tomonidan ma’lumotlar tezkorlik bilan o‘qiladi. Bunda har bir guruh a’zolari to‘g‘ri ma’lumotlar uchun- “qizil kartochka”, noto‘g‘ri

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

ma'lumotlar uchun - "sariq kartochka" larini ko'tarishadi. Natijalarni aniqlab borish uchun har bir guruhga nazoratchilar biriktiriladi.

«Baliq ovi» o'yini.

Doskaning bir tomoniga dengiz rasmi, ikkinchi tomoniga akvarium rasimi tushiriladi. Dengizda baliqlar bo'ladi. O'quvchi dengizdagи baliqlardan birini tutib uni orqa qismidagi savollarga javob beradi. Javob to'g'ri bo'lsa baliqni akvariumga, noto'g'ri bo'lsa dengizga qo'yib yuboradi.

«Raketa» o'yini.

Doskaga raketa rasimi chiziladi, yoki uchta raketa yasab savollar yoziladi kartochkalar ilinadi, Raketa o'zga sayyoraga uchish uchun yuklardan xoli bo'lishi kerak o'quvchilar uch guruhga bo'linadi, qaysi guruh a'zolari savollarga to'g'ri javob bersa kartochkalar olib tashlanadi, to'g'ri javob berilmagan kartochka raketada qoladi va u ucha olmaydi¹. Keltirilgan interfaol o'yinlar o'quvchilarning diqqatini jamlash va mavzuga bo'lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi. Yangi O'zbekistonning ilg'or va zamonaviy o'qituvchilari har bir dars jarayonida shu kabi metod va didaktik o'yinlardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tmoqchiziki, yuqorida keltirilgan ona tilimiz va adabiyotimizga qaratilayotgan e'tiborning boshlanishidir Jumladan, 2023- yilning 11-12-dekabr kunlari Toshkentda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etilganligi ham fikrimiz dalilidir. Bu kabi xalqaro konferensiyalar takror-takror tashkil etiladi. Ona tilimiz va adabiyotimizga qaratilayotgan e'tiborga javoban har bir pedagog o'z vazifasiga sitqi dildan yondashishi lozim deb o'ylaymiz.

¹ Turdiyeva G. "Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(4/2), April, 2023

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўзрисида»ги ПФ-4947-Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун хуёжжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M., Mirsoliyeva M. — *Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik* —O’UM Toshkent -2016
3. G’ulomova M.X., Sobirova N.K. *Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari// Innovatsiya o‘quv jarayonida(tezislar to ‘plami).* -T. 2009.
4. Turdiyeva G “Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish” *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3(4/2), April, 2023